


I
2025

ELECTRONIC EDUCATION

SCIENTIFIC
JOURNAL



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

Laqayev Saidaxmad Norjigitovich
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari

Ro‘ziyev Rauf Axmadovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Editor-in-Chief

Saidakhmad Norjigitovich Lakayev
doctor of physical and mathematical sciences,
academician

Deputy Editor-in-Chief

Ruziyev Raup Akhmadovich
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,
Associate Professor

Responsible editor

Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Professor

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

Kalonov Muxiddin Baxriddinovich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Xujjiyev Sodiq Oltiyevich- biologiya fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Ibragimov Alimjon Artikbayevich-fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Suvonov Olim Omonovich- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Yodgorov G‘ayrat Ro‘ziyevich-fizika- matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Nasirova Shaira Narmuradovna-texnika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

O‘tapov Toyir Usmonovich-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich- fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (O‘zbekiston)

Djurayev Risbay Xaydarovich- akademik (O‘zbekiston)

Shokin Yuriy Ivanovich- akademik (Rossiya)

Negmatov Sayibjon Sodiqovich- akademik (O‘zbekiston)

Aripov Mersaid Mirsiddikovich- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Turabdjano Sadritdin Maxamatdinovich - texnika fanlari doktori, akademik. (O‘zbekiston)

Raximov Isomiddin Sattarovich- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Malayziya)

Shariy Sergey Petrovich- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Ajimuxammedov Iskandar Maratovich- texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Ibraimov Xolboy- pedagogika fanlari doktori, akademik. (O‘zbekiston)

Yunusova Dilfuza Isroilovna- pedagogika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Aloyev Raxmatillo Djurayevich- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna- pedagogika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Mo‘minov Bahodir Boltayevich- texnika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Rosmayati Mohemad - professor. (Malayziya)

Zainidin K. Eshkuvatov – fizika-matematikafanlari doktori (DSc). (Malayziya)

Muhammad Suzuri bin Hitam - professor. Malayziya)

Amiza binti Mat Amin- professor. (Malayziya)

Korshunov Igor Lvovich- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)

Kolbanyov Mixail Olegovich- texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Verzun Natalya Arkadyevna- texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Rossiya)

Stelmashonok Yelena Viktorovna- iqtisod fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Tatarnikova Tatyana Mixaylovna - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Alekseyev Vladimir Vasilyevich - texnika fanlari doktori, professor. (Rossiya)

Satikov Igor Abuzarovich – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

Boyarshinova Oksana Aleksandrovna – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

Makarenko Sergey Nikolayevich – texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

Sednina Marina Aleksandrovna – texnika fanlari nomzodi, dotsent. (Belarus)

Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich- fizika-matematika fanlari doktori, professor. (O‘zbekiston)

Lutfillayev Maxmud Xasanovich- pedagogika fanlari doktori, dotsent(O‘zbekiston)

Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. (O‘zbekiston)

Maxmudova Dilfuza Mileyevna – pedagogika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

Xudjayev Muxiddin Kushshayevich – texnika fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Ibragimov Abdusattar Turgunovich – texnika fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

Norov Abdusaid Murodovich – texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston).
Yuldoshev Ismoil Abriyevich – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)
Karaxonova Oysara Yuldoshevna – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston).
Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna- pedagogika fanlari
doktori, dotsent. (O'zbekiston)
Jabbarov Oybek Rakhmanovich- texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston).
Kabiljanova Firusa Azimovna-fizika-matematika
fanlari nomzodi, dotsent. (O'zbekiston)
Baxodirova Umida Baxodirovna-pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston)
Sharipov Ergash Oripovich-pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, dotsent. (O'zbekiston)
Xamroyeva Dilafro'z Namozovna – fizika-matematika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston).
Toxirov Ferux Jamoliddinovich – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston).
Jo'rakulov Tolib Toxirovich- texnik muharrir

© Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagi 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Adress: Navoiy sh., Janubiy ko'chasi, 1-A uy. (1-A, South Street, Navoi city) URL:
<http://www.el-nspi.uz>

MUNDARIJA

Aniq fanlarda axborot texnologiyalari

Yakubov M. S., Bekmuxammedov B. N. ADAPTIV TA'LIMNING INSTRUMENTAL VOSITALARI VA ALGORITMLARI	10
Ruziyev R. A. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULI	31
Yuldoshev I. A. TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDA AXBOROT ALMASHINUV JARAYONINI 3D MODELINI YARATISH VA FOYDALANISH	39
Xolbekov Sh. O., Ochilov Sh. Sh. YAQINLASHUVCHI MONOTON KETMA- KETLIKLARNING ARIFMETIK AMALLARNING BAJARILISHIDAGI TADBIQLARI	49
Absobirov S. Q. TALABALARGA ARDUINO MUHITIDA DASTULASHNI O'RGATISH USULI	59
Husanova S. H. OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA HISOBLASH TAFAKKURINI O'RGATISHDA MANTIQUIY VA ALGORITMIK FIKRLASHNING O'RNI	68
Begjanova Z. T. SUN'IY INTELLEKT TIZIMLI PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI YARATISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA VOSITALAR	77
Ashurova G. Sh. TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI	84
Xalikov A. T. O'QUVCHILARNING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA DARSDAN TASHQARI FAOLIYATDAN FOYDALANISH USULI	97
Xamroyeva D. N., Baxtiyorova N. I. TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRUVCHI MOBIL ILOVA YARATISH VA FOYDALANISH USULI	108
Saidova D. E. OBYEKTGA YO'NALTIRILGAN MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLAR	119
Ismailov J. A. BULUTLI XIZMATLARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING AMALIY XUSUSIYATLARI	131
Bozorov A. A. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING VIZUAL DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MODELİ	141
Donayev N. Y. BO'LAJAK MATEMATIKA VA INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AXBOROT-TA'LIM MUHITLARIDAN FOYDALANISH	158
Bobonorova Y. A. TALABALARNING MASHG'ULOTLARNI LOYIHALASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA WEB-PLATFORMALARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI	169

Hoshimov O. P. TALABALARNING OBYEKTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURLASH MUHITIDA ILOVALARNI ISHLAB CHIQUISHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	176
Mirzayev I. M. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTAB O‘QUVCHILARINING VEB DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLANTIRISH MUAMMOLARI	185
Himmatov Sh. O. TALABALARNING FRILANSERLIKKA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTRISH MUAMMOLARI	195
Maxsetova M. M. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA KOMPYUTER GRAFIKASINI O‘QITISH USULI	202
Ruziyev R. A., Bo‘ronova O. N. RAQAMLI TA‘LIM JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI VA MAQASADLARI	210
Tabiiy fanlarda axborot texnologiyalari	
Shomurotova X. B. O‘QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARSDAN TASHQARI O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MODEL	218
Teshayeva M. S. O‘QUVCHILARNING BIOLOGIYA FANIDAN DARSDAN TASHQARI O‘QUV FAOLIYATINI WEB-TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	225
Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari	
Mirsanov U. M., Tilovov Sh. A. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA‘LIMINI TASHKIL ETISHDA TA‘LIM MUHITLARINING AMALIY SAMARADORLIGI	232
Atamuratov R. VIRTUAL-TA‘LIMY MUZEYLAR RAQAMLI TA‘LIM EKOTIZIMINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	240
Baydjanov B. X. INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIK FAKE NEWS VA DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUHIM OMILLARIDAN BIRI SIFATIDA	248
Jumanazarov S. S. GLOBALLASHGAN TA‘LIM SHAROITIDA “TARBIYA” FANI O‘QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MODEL	261
Isroilova R. S. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA‘LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH UCHUN TAYANILADIGAN TAMOYILLAR	268
Tleubayeva Z. S. RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING GLOBAL TARMOQDAN AXLOQIY TARBIYALASH MUAMMOLARI	277
Jorabekov T. K. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “KOMPYUTER LINGVISTIKASI” FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI	287

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda axborot texnologiyalari

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUVCHILARNING GLOBAL TARMOQDAN AXLOQIY TARBIYALASH MUAMMOLARI

Tleubayeva Zeinab Sagibayevna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filia, O‘zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning tayyorlash muammolari va yoshlarni tarbiyalashga oid olimlarning ishlarini tahlili keltirilgan. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muammolari, yechimlariga doir taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: raqamli texnologiya, global tarmoq, onlayn, tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyat, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

ПРОБЛЕМЫ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ГЛОБАЛЬНОЙ СЕТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Тлеубаева Зейнаб Сагибаевна

*Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной
медицины, животноводства и биотехнологии, Узбекистан*

Аннотация: В статье представлен анализ проблем подготовки студентов и работы ученых по образованию молодежи в условиях цифровизации. Также были высказаны предложения и рекомендации относительно проблем и путей решения нравственного воспитания учащихся с использованием глобальной сети в условиях цифровизации.

Ключевые слова: цифровые технологии, глобальная сеть, онлайн, образование, духовно-нравственные ценности, педагогическое сопровождение.

PROBLEMS OF MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN THE GLOBAL NETWORK IN THE CONDITIONS OF DIGITALIZATION

Tleubaeva Zeynab

*Nukus branch of the Samarkand state university of veterinary medicine, livestock and
biotechnologies, Uzbekistan*

Abstract: The article presents an analysis of the problems of training students and the work of scientists on the education of young people in the context of digitalization. Also, proposals and recommendations were made regarding the problems and solutions of moral education of students using the global network in the context of digitalization.

Keywords: digital technologies, global network, online, education, spiritual and moral values, pedagogical support.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining aksariyatida telefon, smartfon va planshetlar mavjud bo‘lib, ulardan o‘quvchilar turli maqsadlarda, ya’ni videorloliklarni ko‘rish, onlayn o‘yinlarni o‘ynash, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish va telegram tarmoqlari orqali tengdoshlari bilan ma’lumotlar almashish va turli axloqsiz videolarni ko‘rish orqali o‘z vaqtini samarasiz o‘tkazilib kelmoqda. Buning natijasida

o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini susayishiga, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni yuzaki bajarishga, global tarmoqdan tayyor javoblarni olishga hamda tarbiyaga ta’sir qiluvchi immuniteti shakllanmoqda [1]. Shu bois, raqamli sharoitda o‘quvchilarning global tarmoqdan axloqiy foydalanishni tarbiyalash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun dastlab, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi va amaliyoti, o‘quvchilarning tarbiyalash muammolari hamda o‘quvchilarning global tarmoqdan foydalanish madaniyatiga oid olib borilgan olimlarning tadqiqotlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish nazariyasi amaliyotiga oid tadqiqotlar H.I.Xanbabayev [2], B.Dendeva [3], B.A.Kondratenko [4], Benjamin Clément [5], L.F.Adriana [6], Andrija Bernik [7], Adriano Del Pino Lino [8], J.A.Elmurodov [9], O.V.Nartova [10] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu olimlarning tadqiqotlarida fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish va o‘quvchi-talabalarning fanga oid motivatsiyasini, ijodiy qobiliyatini oshirish, mantiqiy, algoritimik, kognitiv fikrlashini rivojlantirish hamda kompetensiyalarini shakllantirish va kompetentligini rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Ularning ishlarida o‘quvchi-talabalarga raqamli texnologiyalarning tarbiyaga ijobiy va salbiy tomonlarini o‘rganmagan.

Shuningdek, yoshlarni tarbiyalash muammolari, tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy-o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari, talabalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash mexanizmlariga oid tadqiqotlar И. А. Tagunova [11], N. L. Selivanova [11], M. A. Isayeva [11], N.E. Azimova [12], F.B. Valixo‘jayeva [13], Z.K. Kurbaniyazova [14], O. ГазмаН [17] kabi olimlar tomonida tadqiq etilgan. Mazkur olimlarning ishlarida yosh avlodni tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti, tarbiyalashga tayaniladigan tamoyillar va tarbiya metodlari ishlab chiqilgan. Ushbu olimlarni ishlarida yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lsa-da, biroq raqamli texnologiyalar sharoitida tarbiyalash masalalariga e’tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga yoshlarni tarbiyalashda global tarmoqning ta’siriga doir izlanishlar S.B.Sudina [15], S.A.Markelova [16], N.V.Gerova [18], N.O.Shpak [19]larning ishlarida keltirilgan.

Ushbu tadqiqotchilarning ishlarida yoshlarni tarbiyasida global tarmoqning ta’sirlari o’rganilgan bo’lsa-da, biroq raqamlashtirish sharoitida o’quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash ilmiy-amaliy jihatdan yetarlicha o’rganilmagan. Shuning uchun ilgari surilayotgan tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda kuchli, nazoratsiz axborot oqimi ma’naviy-axloqiy yo’l-yo’riq izlayotgan yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda. Yoshlar dunyoga ochiq, ammo rivojlanish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni to’g’ri tanlashga tayyor emaslar [17]. G’arb madaniyati taklif qilayotgan har bir manbada madaniy an’analar va mamlakatimiz mentalitetini hisobga olgan holda ijobiy tajribani qabul qilishni va uni milliy tarbiya muhitiga aylantirishni o’rganish muhimdir. Endi biz har qachongidan ham ko’proq boshqa madaniyatlar bilan munosabatda bo’lishni, bag’rikenglik va konstruktiv muloqot olib borishni o’rganishimiz kerak.

Zamonaviy jamiyatda global tarmoqdagi ma’lumotlarning yoshlarni ma’naviy va axloqiy qadriyatlariga ta’sirini o’rganish zarurati mavjud. Muammo shundaki, yoshlar o’zlari olgan va tarqatayotgan ma’lumotlarning sifati, insonlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga ta’siri haqida o’ylamaydilar.

Fikr va e’tiqod hamda ommaviy axborot vositalari erkinligi zamonaviy jamiyat va demokratik davlat taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan va demokratik jamiyatda zarur bo’lgan muayyan cheklovlar qo’yilishi mumkin.

Keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarning global tarmoqdan foydalanish madaniyatini va axloqiy tarbiyalash zarurati mavjud.

Bu borada S.B.Sudinaning fikriga ko’ra, umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarining axloqiy tarbiyalash muammolarini hal qilish jamiyatning axborot

rivojlanishi sharoitida ayniqsa muhimdir, chunki bola yoshligidanoq zamonaviy texnologiyalar, jumladan, Internet texnologiyalari bilan tanishadi. Sotsiologik tadqiqotlarga ko‘ra, zamonaviy o‘quvchilarining asosiy qiziqishi tarmoq texnologiyalari bilan bog‘liq [15]. Shuning uchun zamonaviy voqelik muhitida o‘quvchining manfaatlarini hisobga olgan holda global tarmoq texnologiyalaridan foydalanishda ijobiy omillarni kuchaytirishga yordam beradigan tizimni ishlab chiqishga undashi kerak.

Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarga mustaqil axloqiy tanlov qilishda yordam berish kerak. Yosh avlodga ushbu tanlovda yordam beradigan vositalar tizimi pedagogik yordamdir. Ushbu masalalar bo‘yicha O.S.Gazman izlanishlar olib brogan. O.S.Gazman ta’lim va tarbiya bilan birgalikda uchinchi komponent sifatida “pedagogik qo‘llab-quvvatlash” nazariyasini taklif etgan. Unga ko‘ra, pedagogik qo‘llab-quvvatlashning predmeti o‘quvchilarning shaxsiy manfaatlarini, maqsadlarini, imkoniyatlarini va uning insoniy qadr-qimmatini saqlab qolishga to‘sqinlik qilishni bartaraf etish usullarini birgalikda aniqlash jarayonidir. Ko‘pgina mualliflarning ta’kidlashicha, pedagogik yordam ko‘proq subyektlarning mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, individual yondashuv tamoyillari va o‘quvchining faol pozitsiyasi, ijodiy hamkorlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi, shu bilan ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyalarini amalga oshirishni ta’minlaydi hamda o‘zini-o‘zi rivojlantirish va o‘zini-o‘zi anglash uchun sharoit yaratadi [17].

Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini Internet-texnologiyalari bilan pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish imkoniyatlaridan foydalangan holda yaxlit ta’limga ko‘maklashish zarur. Chunki ular, hayotning axloqiy rivojlanishi jarayonini faollashtirishga imkon beradi va maktablarda axloqiy tarbiya jarayonini jamiytdagi tarmoq o‘zaro ta’sirining hozirgi rivojlanish darajasiga moslashtirishga hissa qo‘shadi. Shu munosabat bilan maktab o‘quvchilarining axloqiy tarbiyasini pedagogik qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida tarmoq texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini topish muammosi paydo bo‘ladi. S.A.Markelovning fikricha, agar pedagogik yordam tarmoq (Internet)

texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilsa, uni tarmoq ta’minoti deb atash mumkin. Uning bildirishicha, tarmoq texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyani pedagogik qo’llab-quvvatlash, axloqiy tarbiya jarayonini tarmoq qo’llab-quvvatlashdir [16].

Tahlil va natija. Shunday qilib, keltirilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, raqamlashtirish sharoitida o’quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muhim masalalarda biri sanaladi. Shu bois, tadqiqot doirasida ilgari surilayotgan muammoni aniqlash maqsadida dastlab umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilarining global tarmoqqa bo’lgan munosabati va undan foydalanishga oid kuzatishlar va anketa so’rovlar o’tkazildi. Bunda maktab o’quvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- bir kunda global tarmoqdan qancha vaqt foydalanasiz?;
- global tarmoqdan nima maqsadda foydalanasiz?;
- qaysi tarmoqlardan ko’proq foydalanasiz?;
- onlayn o’yinlar o’ynaganmisiz?;
- global tarmoqda e’lon qilingan ma’lumotlarga huquqiy javobgarlik mavjudligini bilasizmi?;
- global tarmoqdan ishonchli ma’lumot olishni xohlaysizmi?;
- global tarmoqdagi axborotni tanqidiy idrok etaolasizmi?;

Ushbu so’rovnomalardan quyidagi xulosaga kelindi. So’rovnoma o’tkazgan o’quvchilarning 90 % i har kuni global tarmoqdan foydalaniladi. Aksariyat o’quvchilar turli ko’ngilochar videolardan foydalanish ma’lum bo’ldi. So’rovnomada qatnashgan o’quvchilarning 83 % i har kuni onlayn o’yinlar o’ynashi aniqlandi. O’quvchilarning 46 % i global tarmoqda e’lon qilgan ma’lumotlar uchun javobgarlik to’g’risidagi yangi qonun haqida biladi, 54 % i esa bilmaydi. 75% axborot tarqatish uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga tayyor, 25% esa javob berishga qiynaladi. So’ralganlarning 100% ishonchli ma’lumot olishni xohlaydi. 63 % i axborotni tanqidiy idrok eta olishiga ishonadi, 13 % iidrok eta olmaydi, 24 % i javob berishga

qiynaladi. 82 % i axborotni tahlil qilib, unga holis baho bera olishiga ishonsa, 10 % bilmaydi, 8 % i javob berishga qiynaladi.

Shu bilan birga umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilariga global tarmoqqa joylashtirilgan maʼlumotlarning yoshlarning maʼnaviy-axloqiy rivojlanishiga taʼsir darajasini aniqlash maqsadida soʻrov oʻtkazildi. Unda umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻquvchilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi:

- global tarmoqdagi maʼlumotlar maʼnaviy-axloqiy rivojlanishiga kuchli taʼsir koʻrsatadimi?;
- global tarmoqning salbiy taʼsiridan oʻzlaringizni himoya qilaolasizmi?;
- mamlakatimizda maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish (sevgi, yordam berish va birdamlik) orqali yoshlarni madaniyat darajasini oshirishga munosabatingiz?.

Ushbu keltirilgan soʻrovlar tahliliga koʻra, oʻquvchilarning 32 % iga global tarmoqdagi maʼlumotlar maʼnaviy-axloqiy rivojlanishiga taʼsir koʻrsatmaydi, 54 % iga taʼsir etadi, 20 foizi esa javob berishga qiynalaman degan fikrlarni bildirdi. Oʻquvchilarning 77 % i global tarmoqning salbiy taʼsiridan oʻzini himoya qila olishiga ishonchi komil, 7 % i himoya qilaolmasligi, 14 % i aniq fikr bildiray olmayman degan fikrlarni bildirdi. Oʻquvchilarning 81 % i maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish orqali mamlakatimizda milliy madaniyat darajasini oshirish zarur, deb hisoblaydi, 6 % i bu zarur emas, 13 % i aniq fikr bildirolmasligini taʼkidlaydi.

Shu bilan birga oʻquvchilarning qoʻl telefonlari va kompyuterlardan foydalangan manbalarini tarixi tekshirildi (kompyuter va telefonni xotirasida global tarmoqdan foydalangan manbalar). Tahlil qilingan telefon va kompyuterlarning 82 % i da oʻquvchilarning axloqiy tarbiyasiga taʼsir koʻrsatuvchi manbalar borligi aniqlandi.

Olib borilgan qisqa tadqiqotlar tahliliga koʻra, bugungi kunda oʻquvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalash muhim masalalardan biri ekanligi maʼlum boʻldi. Muammolarni yechimi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- global tarmoqdagi ma’lumotlarni filtirlash (keraksiz ma’lumotlarga to’siq qo’yish);
- tarbiya darslarida global tarmoqning ta’sirini tushuntirishga alohida e’tibor qaratish;
- o’quvchilarga ta’limga oid ta’lim muhitlardan foydalanish usullarini o’rgatish;
- uy sharoitida o’quvchilarni global tarmoqdan foydalanish holatini tahlil etib borish;
- o’quvchilarning onlayn muhitlar yordamida jamoa bo’lib dasturlashga oid motivatsiyasini oshirish;
- o’quvchilarning frenarsillikka oid ko’nikmalarini shakllantirish;

Xulosa va takliflar. Olib borilgan izlanishlar tahliliga ko’ra, shunisi e’tiborga loyiqki, o’quvchilar o’zlarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va shakllantirishni xohlashadi, ammo ular o’zlari ustida ishlashni (fanlarni o’zlashtirish) afzal ko’rishadi. Chunki ular uchun kollektivizm emas, balki individuallik ustuvor hisoblanadi. Bu shuni ko’rsatadiki, so’nggi o’n yilliklarda mamlakatimizda G’arb turmush tarzi - shaxsiy ehtiyojlarini qondiradigan iste’mol uslubi ildiz otgan. Shuning uchun o’quvchilarning global tarmoqdan axloqiy tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim.

O’tkazilgan tadqiqot natijalariga ko’ra, biz shunday xulosaga keldikki, umumiy o’rta ta’lim maktabi o’quvchilari global tarmoqdan ishonchli ma’lumot olishni xohlashadi va o’zlari yozgan izohlar hamda ma’lumot tarqatish uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga tayyor. Biroq o’quvchilarning barchasi ham global tarmoqning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’siri kuchini bilmaydi. Shuning uchun raqamlashtirish sharoitida o’quvchilarning vatanparvari bo’lib yetishishiga ko’maklashish, ularni ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni to’plash va asrab-avaylashga, boshqa madaniyat vakillari bilan bag’rikeng muloqotni amalga oshirishga yo’naltirish zarurligi ayon bo’lmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirsanov U. M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o’qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.

2. Xanbabayev H.I. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – qo‘qon, 2023. – 243 b.

3. Дендева Б. Информационные и коммуникационные технологии в образовании // Монография. – Москва, 2013. – 320 с.,

4. Кондратенко Б.А. Персонализация профессионального обучения с использованием информационно-коммуникационных технологий // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Калининград, 2015. – 205 с.,

5. Benjamin Clément. Adaptive Personalization of Pedagogical Sequences using Machine Learning. Artificial Intelligence [cs.AI]. – Université de Bordeaux, 2018. – 139 p.,

6. Adriana L.F. A dinâmica de relacionamento entre as Tecnologias da Informação e o Desempenho Organizacional no contexto da indústria da hotelaria // Tese especialmente elaborada para obtenção do grau de Doutor em Ciências e Tecnologias da Informação. – Dezembro, 2017. – 273 p.

7. Andrija Bernik. Uvođenje elemenata računalne igre u online poučavanje sadržaja informatičkih nastavnih predmeta // DOKTORSKI RAD. – Varaždin, 2017. – 416 p.

8. Adriano Del Pino Lino. Labder - laboratório virtual de ensinoaprendizagem de banco de dados relacionais: uma abordagem de avaliação automática de diagramas er e SQL. Maio de 2021. – 350 p.

9. Элмуродов Ж.А. Умумий ўрта таълим муассасалари учун очик ахборот-таълим муҳитини яратиш ва жорий этиш методикасини

такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2021. – 152 б.

10. Нартова О.В. Педагогические условия формирования мотивации учебной деятельности учащихся в открытом образовательном пространстве // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Барнаул, 2011. – 259 с.

11. Тагунова И. А., Селиванова Н. Л., Исаева М. А. Теоретико-методологические ориентиры моделей воспитания в англоязычных странах // Вестник православного Свято-Тихоновского гуманитарного университета. Серия IV: «Педагогика. Психология». Выпуск 3 (38). 2015. – С. 20–36

12. Азимова Н.Э. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш технологияси. // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2012. – 146 б.

13. Валихўжаева Ф.Б. Талабаларни мактабгача таълим муассасаларида болаларга эстетик тарбия беришга тайёрлаш // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд, 2005. – 139 б.

14. Курбаниязова З.К. Тарбиявий ишлар жараёнида ўқувчиларда миллий-ўзликни англашни шакллантиришнинг педагогик асослари (Қорақалпоқ мактабларининг VII-IX синфлар мисолида) // Педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2002. – 148 б.

15. Судьина С. Б. Разработка модели сетевой поддержки нравственного воспитания в начальной школе / С. Б. Судьина. — Текст : непосредственный // Педагогика: традиции и инновации : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, декабрь 2013 г.). — Т. 0. — Челябинск : Два комсомольца, 2013. — С. 123-126. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/98/4559/> (дата обращения: 19.03.2025).

16. Маркелова С.А. Сетевая дистанционная поддержка педагогической практики студентов // Диссертация кандидата педагогических наук. – Санкт-Петербург, 2010. – 153 с.

17. Газман О. С. От авторитарного образования к педагогике свободы // Новые ценности образования: тезаурус для учителей и школьных психологов. — М., 1995. — 240 с.

18. Герова Н. В., Рогатинская А. В. (2021) Духовно-нравственное воспитание детей в условиях цифровой трансформации образования // Наука о человеке: гуманитарные исследования. Том 15. — № 3. — С. 73-79. DOI: 10.17238/issn1998-5320.2021.15.3.8.

19. Шпак Н.О. Формирование гуманистических ценностей у молодых специалистов сферы управления// Общество и этнополитика: материалы Седьмой Междунар. науч.- практ. Интернет-конф., 1 мая - 1 июня 2014. РАНХиГС, Сиб. ин-т упр., под науч. ред. Л. В. Савинова. — Новосибирск: Изд-воСибАГС, 2015. — С.224-229.